



ATROF-MUHIT – JIM YURADIGAN DARD

Usmanova Dinora G'ulomjon qizi

Tabiat shunday mo‘jizaki – u na gapiradi, na baqiradi. U noroziligini osmonni to‘sib turgan qora bulutlar, so‘lib qolgan barglar va yomg‘ir paytidagi chaqmoq bilan ifoda etadi. U shovqin ko‘tarmaydi, faqatgina bizga jim yuradigan dardini namoyon etadi.

Har bir yerga tashlangan chiqindi – bu yerning yuragiga sanchilgan xanjar, har bir sindirilgan daraxt esa tabiatning kesilgan barmog‘idir. Biz go‘yoki o‘z qo‘limiz bilan uyimizni yoqayapmiz, ammo tutunidan boshqalar jabr chekayotganini sezmaymiz.

Suv – bu tabiatning ko‘z yoshi. Xuddi yomg‘ir yog‘ayotganda osmon nola chekayotgandek. Suv jim oqadi. Agar suv bizga qarshi so‘zlaganida edi, biz bundan uyalib qolgan bo‘lardik.

Havo – bu ko‘rinmas hayot. Xuddi nafas olishga qiynalayotgan bemorning kislorod orqali nafas olayotgani kabi. Uni ifloslash – bu ko‘rinmas o‘lim bilan o‘ynashishdir.

Atrof-muhitni toza saqlash – bu shunchaki chiqindi qutisiga qog‘oz tashlash emas. Bu – ongli harakat, yurakdagi mas‘uliyat, vijdonning uyg‘oqligidir.

Inson tabiatni qarz deb bilmaydi. U o‘ylaydi: “Bu o‘rmon menga xizmat qilishi kerak, bu daryo mening chanqog‘imni qondirishi kerak, bu quyosh menga issiqlik berishi kerak.” Ammo o‘zining tabiat oldidagi vazifalarini unutib qo‘yadi.

Har bir daraxtni kesgan ham, uni parvarish qilgan ham inson qo‘li. Farqi faqat vijdonda.

